

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)	G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)	LEEDONG WOOK (Janubiy Koreya)	BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	A'ZAMOV A. (O'zbekiston)	KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)	CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)	RAKETIN O. (Rossiya)	TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)
AXTARIYEVA R. (Rossiya)		TURAYEV A. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

IJTIMOYIY GUMANITAR FANLARI BO'YICHA		ANIQ VA TABIIY FANLAR BO'YICHA	
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	MAMAJONOV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.dots.
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	KAXAROVA M (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.dots.
TOJIBOYEVA H. (O'zbekiston)	Ped.ilm.tad.instituti. p.f.d.(Dsc)	ISOMIDDINOV F. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.
O'RINOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.dots.	SABIRDINOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
USMONOV B. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.	RAHIMOV Z. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.
DAVLYATOVA G. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.	XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.dots.
G'OFUROV A. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.prof.	MIRZAYEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.(PhD)
XONKELDIYEVA G. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.prof.		
HOLMATOV B. (O'zbekiston)	FarDU, I.f.n.	O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
XAKIMOV N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d. dots.	KARIMOV Sh.T (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.dots.
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.	OTAJONOV S. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
USMONOV B. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d (DSc)	RASULOVA R. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
MAXMUDOV O. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.dots	ONARQULOVA K. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
ALIMOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.f.d.(PhD)	SHUHRATOV SH. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.b.f.d dots.
JO'RAYEV H. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d(PhD).dots.	ASQAROV I. (O'zbekiston)	AnDU, k.f.d.prof.
MAMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d (PhD).prof.	IBRAGIMOV A.(O'zbekiston)	FarDU, k.f.d.prof.
AHRORQULOVA A. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.b.f.d(PhD)	MAMATQULOVA S. (O'zbekiston)	FarDU, k. f.b.f.d (PhD)
G'ANIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.dots.	ABDUG'ANIYEV O. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.d.(DSc)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	AXMADALIYEV Yu. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.d.prof.
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	YULDASHEV G. (O'zbekiston)	FarDU, q.x.f.d.prof.
SHUKUROV R. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.dots.	ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.d.prof.
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.doktori.	SHERALIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.d.(PhD).
UMAROVA N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.doktori.	SHERMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.n.

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'ozi.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona, 2023.

B.Shermuhammadov, O.Raxmatov	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni informatsion madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	8
B.Shermuhammadov, D.Namozova	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ kompetentligini takomillashtirish modeli.....	13
B.Shermuhammadov, B.Baratov	
Bo'lajak o'qituvchilarni uzliksiz ma'naviy tarbiya jarayonida ma'naviy-madaniy fazilatlarini rivojlantirish shart-sharoitlari.....	18
D.Yuldasheva, R.Bekmagambetova, Sh.Matkarimova	
Bolalar poetik matnlarini pedagogik dizayn vositasida o'rgatish.....	22
G.Tashmatova	
Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish	25
I.Siddiqov	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari	29
A.Xo'jayev	
Kadrlar tayyorlash sifatini monitoring qilishda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	33
X.Qodirov	
Professional-pedagogik madaniyatning xossasi sifatidagi innovatsionlikning shaxsiyat darajasida namoyon bo'lish tasniflari.....	38
B.Baydjanov	
Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash samaradorligi.....	42
A.Turaxanov	
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talaba (kursant)larida jismoniy-taktik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	49
R.Madaliyev	
Talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarning ahamiyati.....	52
X.Yulbarsova	
Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida	56
A.Soyibnazarov	
Ta'limda yangicha yondashuv tahlili: smart ta'lim.....	62
S.Kamchiyev	
Ertalabki gimnastikani kichik va o'rta guruhlarda o'tkazish usullari va mohiyati.....	67
N.Mamatqulova	
Ta'limda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari	71
S.Sulaymanova	
Tasviriy san'at fanlarida perspektivaning muhim ahamiyati va uning qo'llanilish xususiyatlari.....	75
M.Aripjanova	
Professional ta'lim o'quvchilarining kasbiy kompetentsiyalariga talablar tahlili	80
D.Yo'ldosheva	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari	83
N.Dusimbetova	
Bo'lajak jurnalistlarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning amaliyotdagi holati.....	88
T.Turgunbayev	
Harbiy ta'limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda (kursantlarda) vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik shakli, metodi va vositalari	92
N.Yuldasheva	
Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish borasidagi metodik yondashuvlar	95
J.Qodirov	
Shaxsga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish omillari.....	99

HAMKORLIK PEDAGOGIKASI ASOSIDA OLIY TA'LIMDA TA'LIM JARAYONINI
SAMARALI TASHKIL ETISHЭФФЕКТИВНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ВЫСШЕЙ
ШКОЛЕ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИКИ СОТРУДНИЧЕСТВАEFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN HIGHER
EDUCATION BASED ON THE PEDAGOGY OF COOPERATIONTashmatova Gulnoza A'loyevna¹¹ Tashmatova Gulnoza A'loyevnaToshkent tibbiyot akademiyasi, bolalar
kasalliklari kafedrasi dotsenti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish usullari, shuningdek, dars samaradorligini oshirishda hamkorlikda ishlash tamoyillarining muhim jihatlari xususida fikr yuritiladi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются методы эффективной организации образовательного процесса в высших учебных заведениях на основе педагогики сотрудничества, а также важные аспекты принципов совместной работы в повышении эффективности урока.

Abstract

This article discusses the methods of effective organization of the educational process in higher educational institutions based on the pedagogy of cooperation, as well as important aspects of the principles of teamwork in improving the effectiveness of the lesson.

Kalit so'zlar: hamkorlik pedagogikasi, hamkorlikda ishlash tamoyillari, insonparvarlik pedagogikasi, ta'lim sifatini takomillashtirish.

Ключевые слова: педагогика сотрудничества, принципы сотрудничества, гуманитарная педагогика, повышение качества образования.

Key words: pedagogy of cooperation, principles of cooperation, humanitarian pedagogy, improving the quality of education.

KIRISH

Hamkorlik pedagogikasi – bu shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishi yo'lida muhim qadam hisoblangan, bolalarni o'qitish va tarbiyalashda nafaqat o'qituvchilarning ta'lim oluvchilar va hamkasblar bilan, shuningdek, ota-onalar, atrof-muhit, jamoa faollari bilan birgalikdagi faoliyatidir. Ota-onalar, atrof-muhit, jamoa faollari, nodavlat va notijorat tashkilotlar bilan birgalikdagi harakat, dars va darsdan tashqari faoliyatda ularning ishtirok etishi, ta'lim-tarbiya jarayoni sifat va samaradorligini oshirishda yordam ko'rsatishi, mavjud muammolarni birgalikda hal etish va o'zaro hamfikrlilik muhitini tashkil etishni talab etadi. Pedagog-novatorlar esa pedagogika fani rivojiga o'z hissasini qo'shadigan, yuqori natijalarni ko'zlaydigan iste'dodli pedagoglar bo'lishi lozim.

Hamkorlik pedagogikasining g'oya va tamoyillarini amalga oshiruvchi pedagog-novatorlarning konseptual g'oyalarini tahlil etish, ularning ta'lim oluvchilarning ta'lim-tarbiyasiga yondashuvi yangi, insonparvar tizimga egaligini alohida qayd etishni taqozo etadi.

Hamkorlik pedagogikasining rivojlanishi, eng avvalo ta'lim-tarbiyani insonparvarlashtirish va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bilan bevosita aloqadordir. Shu bilan birga, bugungi kunda ham ta'lim-tarbiyani insonparvarlashtirish, shaxsiy insonparvarlik yondashuvi hamkorlik pedagogikasining muhim yo'nalishlari sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'lim sifatini takomillashtirish deganda ta'lim jarayonlarini tizimli loyihalashtirish va pedagogik qo'llab-quvvatlash, qayta aloqaning intensivligini ta'minlash, pedagogik tizimning ochiqqligi, dinamikligi, statistikligi, talabalarining o'z-o'zini rivojlantirishi, intellektual, hissiy, axloqiy, madaniy, jismoniy imkoniyatlarini faollashtirishga erishish tushuniladi. Talabalarining o'z-o'zini rivojlantirishida hamkorlik pedagogikasi yetakchilik qiladi. Buning uchun darslarda talabaga fikr erkinligi, o'zaro bahs-munozaraga kirishish, fikrini isbotlash uchun imkoniyat yaratish kerak bo'ladi.

Yu.A.Maslova ham ta'lim jarayoni sifatini uch asosiy jihatlarini alohida qayd etadi:

- birinchidan, bilimlar va ko'nikmalar sifatidagi asosiy xususiyatlar;
- ikkinchidan, o'quv yurtlari tomonidan taqdim etilayotgan kafolatlar;
- uchinchidan, ta'lim muassasasining obro'si, nufuzi, o'qituvchilar va ta'lim olayotganlarning kommunikativ layoqati va boshqa xususiyatlari tegishlidir [6].

Shu o'rinda oliy o'quv yurtlari tomonidan taqdim etilayotgan kafolatlarning bosh mezoni sifatida dars sifatiga qaratilar ekan, bunda har bir talabaning darsga bo'lgan qiziqishini orttirishda hamkorlikda ishlashning o'ziga xosligi, talabaning darsda ko'makchi, yo'naltiruvchi sifatidagi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda.

K.Rodjers an'anaviy pedagogikaning o'qituvchi bilimlarini bayon etishi, ta'lim oluvchilar ularni o'zlashtirishga harakat qilishi, dars va imtihonlar – ta'limning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanishi, shuningdek, o'qituvchi boshqaruvchi, ta'lim oluvchilar esa unga bo'ysunuvchilar sifatidagi qotib qolgan qoidalarni tanqid qiladi.

Ana shu nuqtayi nazardan K.Rodjers[5] ta'limning ikki turini ajratib ko'rsatadi: oddiy bilimlar, faktlar bilan qurollantiradigan axboriy va ta'lim oluvchilarga ularning o'z-o'zini o'zgartirishi va o'z-o'zini rivojlantirishi uchun zaruriy, haqiqiy bilimlar beruvchi ahamiyatli ta'lim. Insonni shaxs sifatida shakllantiruvchi ta'lim shaxsga yo'naltirilgan yoki K.Rodjers fikricha, ahamiyatli ta'limdir.

Oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, pedagogikaning atrofdagi shaxsga nisbatan pedagogik-psixologik ta'sirlarni rasman bekor qilish, shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaga umumiy tartibda o'tish, oliy ta'limda pedagog hamda hozirda ta'lim oluvchilar o'rtasida insoniy va axloqiy munosabatlarni o'rnatish hamda tarkib toptirish bilan farq qilishi, qolaversa, bugungi kun ta'lim oluvchilarining shaxsiy va ilmiy faoliyatida bularning barchasi muhim ahamiyat kasb etishi lozim.

Yuqorida ta'kidlangan insonparvarlik nuqtayi nazaridan aynan ta'lim va tarbiyaning asosiy belgilangan maqsadi shundan iboratki, har bir ta'lim oluvchi bilish hamda muloqot qila olish faoliyatining to'laqonli huquqli subyekt, qolaversa, samarali faoliyatni tashkil eta oladigan tashabbuskor shaxs bo'la oladi.

Ta'lim jarayonida o'quv-tarbiyani insonparvarlashtirishning asosiy muhim parametrlari va ko'rsatkichi sifatida qanchalik bu jarayonlar shaxsning umumiy mazmunda o'z-o'zini to'laqonli namoyon eta olishi uchun turli shart-sharoit yaratilganligi, shuningdek, undagi tabiiy va ilmiy layoqatni yuzaga chiqarganligi, uning ijodkorligi, erkinlik, tashabbuskorlik qobiliyatlarining turli yo'nalishda shakllanganligi bilan belgilanadi.

Pedagogik jarayonlarni umumiy tartibda insonparvarlashtirishning keng masalalarini tahlil qilar ekanmiz, L.V.Zanina uni amalga oshirishning yo'llaridan biri sifatida "qaysidir fanlar doirasida kuchni turli faoliyatda sarflashda emas, turli nazariy va amaliy bilim sohalari, madaniyat, tashqi muhit mashg'ulotlari uchun tanlangan ma'lumot erkin olinadigan va buni umumiy tarzda pedagogik-psixologik vazifalarni birlashtiradigan" integratsion ta'lim mazmunini qayta tashkil etishda va faoliyatga tadbiiq etishda aks etadi, deb ta'kidlab o'tadi.

L.V.Zanina tadqiqot ishida ta'lim oluvchilarda "Menlik" tuyg'usining katta imkoniyatlarga ega ekanligiga ishonch uyg'ota oladigan pedagogni har jabhada insonparvarlikning muhim jihati, deb hisoblaydi [3].

Ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirishning turli jihatlarini E.V.Bondarevskaya [2], S.V.Kulnevich[2], B.M.Bim-Bad[1], V.V.Serikov[8], J.G'.Yo'ldoshev[4] , R.G'.Safarova [7], N.M.Egamberdieva [9] kabilarning ishlarida bayon etilgan.

Hamkorlik pedagogikasining asosiy yo'nalishlaridan yana biri shaxsiy-insonparvarlik yondashuvidir. Shaxsiy-insonparvarlik yondashuv shaxs sifatlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimi markazida turadi. Bunday rivojlanishning o'lchovi ta'limning asosiy natijasi, yaxlitlikda o'qituvchi, tarbiyachi, boshqaruvchi, tarbiyaviy muassasa ish sifati mezoni deya e'lon qilinadi.

Mazkur yondashuv ta'lim oluvchi shaxsi, uning ichki dunyosi, qobiliyatlari, imkoniyatlari, erkinlik va adolatlilik, yaxshilik va baxtning axloqiy kuch-qudratini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ta'lim muassasasining maqsadi – shaxsning ichki kuchlari va imkoniyatlarini uyg'otish, ularning to'liq va erkin rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir.

Aynan bugungi kunga kelib ta'limning asosiy maqsadi o'quv-tarbiya jarayonining shaxsga yo'naltirilganligi asnosida ta'limga va shaxsga nisbatan yangicha va innovatsion qarash: shaxsiy

PEDAGOGIKA

pedagogik faoliyatning ob'ekti emas, aksincha subyekt sifatida aks etadi; shaxs esa – bunda qandaydir ichki va tashqi maqsadlarga erishish vositalari emas, balki ta'lim tizimi maqsadi; har bir ta'lim oluvchi qobiliyatli, ko'plab ta'lim oluvchilar iqtidorli; shaxsning muhim sifatleri sifatida yuksak axloqiy qadriyatlar (yaxshilik, sevgi, mehnatsevarlik, vijdon, qadr-qimmat, fuqarolik va boshqalar) aks etadi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish: pedagogik muhabbat, ta'lim oluvchilar taqdiriga qiziqish bilan qarash; ta'lim oluvchiga yuksak ishonch bilan qarash; hamkorlik, muloqot mahorati; to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish; ijobiy rag'batlantirishning muhimligi; ta'lim oluvchi shaxsiga ta'lim subyekt, faollik va erkin tanlash sohibi sifatidagi munosabat; o'qituvchi va ta'lim oluvchi huquqlarini tenglashtirish; ta'lim oluvchining erkin tanlashga bo'lgan huquqi tushuniladi.

Zamonaviy sharoitda to'g'ridan-to'g'ri natija bermaydigan "majburlab o'qitish" metodidan voz kechish balki majburlovsiz, ishonchga asoslangan talabchanlikni yo'lga qo'yish; o'qitishga tug'ma qiziqishlarni ko'payganligi; majburlashning o'rnini muvafaqqiyatga erishishga imkon beradigan istak bilan almashtirish; ta'lim oluvchilarni erkinlik va tashabbuskorlikka qo'yib berilishi; ta'lim oluvchilarga ularning subyektligi, o'z-o'zini namoyon etishi, ijtimoiylashuvi, hayotiy o'z o'rnini belgilashga yordam ko'rsatish, pedagogik qo'llab-quvvatlash.

Shu o'rinda individual yondashuvni yangicha talqin etishda quyidagicha xulosa qilish mumkin: "barcha o'quv fanlardan ta'lim oluvchiga qarab borish emas, aksincha ta'lim oluvchidan boshlab sekin asta o'quv faniga borish" tamoyilining bajarilishi; bunda ta'lim oluvchilarning barcha qobiliyatlari va mavjud bugungi imkoniyatlarini inobatga olgan holda o'qitish; ta'limda o'zlashtirishda o'rtachalikdan voz kechish; ta'lim oluvchi shaxsining eng yaxshi sifatlarini izlash; shaxsni pedagogik tashxis eta olish (qiziqish, turli qobiliyatlari, jarayonga yo'nalganlik, Menlik, ijobiy xarakter, kreativ fikrlash jarayonlarining o'ziga xosligi)ning qo'llanilishi; shaxsning o'quv-tarbiya jarayonidagi barcha o'ziga xosliklarini hisobga olish zarur.

Bugungi kunda olamni yaxlit tarzda turli fanlar kesimida o'rganish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki, aksariyat kishilar ongida yirik muammolar va ularni echishning muayyan darajasi mavjud emas. Ma'lumki, xalqning ijtimoiy tajribasi ta'lim jarayonida yosh avlodga taqdim etiladi. Ta'lim strategiyasini o'zgartirish uchun uchinchi ming yillik bo'sag'asida yangicha metodologiya asosida ta'lim tizimi isloh qilina boshlandi. Bu esa, fanda sohalararo aloqadorlik, hamkorlikda faoliyatni tashkil etish paradigmasini vujudga keltirdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish usullari, shuningdek, dars samaradorligini oshirishda hamkorlikda ishlash tamoyillarining muhim jihatlari o'rganishda birgalikda ishlash, tasniflash, tavsifiy, oppozitiv, qiyosiy, transformatsiya, statistik metodlardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil va natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quv-bilish faoliyatida ta'lim oluvchilarning o'zaro harakati jarayonida muvofiqlikka erishish ularning jipslashuviga (kooperatsiya) o'tishining zarur shartini aks ettiradi. O'zaro jipslik mehnat jarayonida bir yoki bir necha vazifani bajarishda hamkorlikda ishtirok etadigan kishilar faoliyatini tashkil etish shakllaridan birini aniqlab beradi. O'quv-bilish faoliyatida ta'lim oluvchilarning jipsligining asosiy tavsifi o'quv maqsadlariga erishish uchun ularning imkoniyatlarini integratsiyalashda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, biz ta'lim sifati samaradorligini oshirishda ta'lim oluvchilarning o'zaro jipsligi, ularning hamkorlikdagi faoliyatiga kirishishi muhim rol o'ynaydi. Ta'lim oluvchilarning hamkorligi asosida birgalikdagi faoliyatning ma'lum maqsadga erishish uchun ularning kuchlarining birlashuvi yotadi. Kooperatsiyadan farqli ravishda ta'lim oluvchilarning hamkorligi o'quv-bilish faoliyati subyektlarining o'zaro harakati va uning tashkillanishida o'zaro bir-biriga yordam ko'rsatish, faol sheriklik, bir-biriga mas'ullikning jadalligi bilan tavsiflanadi.

Yuqoridagi tahlillardan aniq bo'ldiki, maqsadga erishishda o'zaro kelishuvga asoslangan hamkorlikdagi o'quv-bilish faoliyati subyektlarining harakati ta'lim oluvchilar hamkorligining yana bir invariant belgisini o'zida aks ettiradi.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlar tahlili o'quv-bilish faoliyatida ta'lim oluvchilarning subyektiv nuqtayi nazarlarini faollashtirishga asoslangan dialogik o'zaro birgalikdagi harakat uning ishtirokchilarida ko'plab nuqtayi nazarlar, qarashlar, farazlarni hosil qiladi, shu bilan birga, ta'lim

oluvchi shaxsini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega va ular o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga imkon beruvchi tashqi muhitni aniqlab beradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, ta'lim oluvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Бим-Бад Б.М. Педагогическая антропология.– М.: УРАО, 2003. – 208 с.
2. Бондаревская Е.В., Кульневич С.В. Педагогика: личность в гуманистических теориях и системах воспитания. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1999. – 178 с.
3. Занина Л.В., Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – 288 с.
4. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004. – 101 b.
5. Роджерс К., Фрейберг Д. Свободо учиться. Москва. Смысл.2019. стр.-601.
6. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. /T.: «Turon-Iqbol», 2006. -592 b.
7. Safarova R., Musaeu U.Q., Musaeu P. va boshq. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. –T.: Fan, 2005. – 255 b.
8. Сериков, В.В. Образование и личность. Теория и практика проектирования педагогических систем. – М.: Издательская корпорация «Логос», 1999. – 272 с.
9. Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (Pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida): Ped. fan. dok. ... diss. – T., 2010. – 332 b.

REQUIREMENTS FOR ARTICLE SUBMISSION TO "FSU. SCIENTIFIC REPORT - NAUCHNY VERSTNIC.FerGU":

1. A letter from the management of the institution in which the author (s) is working; 2) Act of Expert Panel - 2 copies; 3) a written recommendation signed by the doctor of science and a specialist in philology (the signature must be properly duly included) in the editorial board of the scientific direction in which the article is written.

2. Articles must be written in Uzbek, Russian or English in accordance with IMRAD requirements.

3. Irrespective of the language in which the article is written, it is accompanied by an Abstract in 3 languages - Uzbek, Russian and English 150-200 words, keywords and phrases (keywords) and UDC number. The article should be submitted to the journal's editorial office in duplicate in electronic format (flash) in Microsoft Word (Times New Roman 14-dimensional, interval between lines).

4. The total size of the article (including images, tables and charts) should not exceed 8-10 pages, the amount of short messages should not exceed 4-5 pages. One copy of the article is signed by the author (s).

5. The author's name, surname, place of work, position, address (home and office phone numbers, e-mail) are indicated.

1. If the article includes drawings, tables, diagrams, schemes, diagrams, various graphic symbols, they should be clearly and clearly illustrated, and full abstracts should be provided. Formulas should be included in the text in specific computer programs.

2. References quoted or used are shown in the general list at the end of the article, rather than in the form of sub-footnotes. Following the copy of the text, the order number and page of the work cited are given in square brackets. The authors' names for books, collections, monographs, full name of the source, index of publication (city, year of publication and publication) are indicated here. For journal articles and other periodicals the names of authors, article title, journal name, year and number, page number are specified.

3. Articles submitted to the editors are reviewed by the editorial board. The article will be returned to the reviewer, if necessary, to the author for further processing on all questions and objections. Copies of the articles will not be returned.

4. The article received a positive review. Editorial board has the right to shorten the text of the article and make editorial changes.

5. Articles that do not meet the above requirements will not be accepted by the editorial board.